

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.


Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


3



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga qilinmoqda. Bu esa, aholi xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



23 937




Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

9 041



Oilaviy korxonona

158



Unitar korxonona

7 247



Xususiy korxonona

30



Aksiyadorlik jamiyati

490



Boshqa korxonalar

40 903

• Tijorat korxonalar

179


• Yirik korxonalar

40 724

• Kichik va mikrofirmalar


Faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida, birlikda)





43 130- Ro'yxatdan o'tgan

2 523- kichik korxonalar

40 607- mikrofirmalar



40 724- Faoliyat ko'rsatayotgan

2 448- kichik korxonalar

38 276- mikrofirmalar



10 814- Yangi tashkil etilgan

462 - kichik korxonalar

10 352- mikrofirmalar


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 9 626 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 481 taga yoki 34,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 9 041 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 285 taga yoki 33,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 986 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 309 taga yoki 11,5 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 25 143 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 529 taga yoki 22,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 937 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 258 taga yoki 21,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-dekabr oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 802 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 013 taga yoki 21,1 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

10



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 661 tani tashkil etib, ulardan 646 tasi yoki 97,7 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 64 taga yoki 10,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 96 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

	2020 y.	2021 y.
Jami	80	96
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17	11
Sanoat	34	27
Qurilish	8	3
Savdo	13	25
Tashish va saqlash	3	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	5
Axborot va aloqa	-	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	5
Boshqa turlar	3	14

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

11



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

12

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Samarqand viloyati	646	431	215
Samarqand sh	289	167	122
Kattaqo'rg'on sh	22	18	4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	34	27	7
Bulung'ur	24	11	13
Jomboy	46	36	10
Ishtixon	15	10	5
Kattaqo'rg'on	12	10	2
Qo'shrabot	22	11	11
Narpay	5	4	1
Payariq	16	11	5
Pastdarg'om	31	24	7
Paxtachi	9	5	4
Samarqand	41	31	10
Nurobod	14	12	2
Urgut	53	45	8
Toyloq	13	9	4

646 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



215 ta xorijiy korxonona


431 ta qo'shma korxonona



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (28,6%), Pastdarg'om (8,4%), Urgut (8,4%), Samarqand (7,6%), Payariq (5,3%), Ishtixon (5,4%), Kattaqo'rg'on (5,1%), Oqdaryo (4,3%), Toyloq (4,3%), Bulung'ur (4,0%), Jomboy (4,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,3%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,1%), Paxtachi (2,7%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,6%), Pastdarg'om (9,6%), Urgut (8,3%), Samarqand (7,9%), Ishtixon (6,0%), Oqdaryo (5,5%), Kattaqo'rg'on (5,2%), Payariq (5,2%), Toyloq (4,4%), Jomboy (4,1%), Bulung'ur (3,9%), Nurobod (3,7%), Paxtachi (2,9%), Narpay (2,9%), Kattaqo'rg'on shahri (2,8%) va Qo'shrabot (2,0%) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (35,4 %), Urgut (7,9 %), Samarqand (7,6%), Pastdarg'om (6,8%), Kattaqo'rg'on shahri (4,5 %), Oqdaryo (4,0 %), Nurobod (4,0 %), Bulung'ur (3,9 %), Jomboy (3,7 %), Ishtixon (3,6 %), Toyloq (3,1 %), Qo'shrabot (2,3 %), Paxtachi (2,2 %) va Narpay (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqdi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (17,4%), Pastdarg'om (11,8%), Samarqand (11,7 %), Payariq (10,3 %), Kattaqo'rg'on (9,0%), Oqdaryoda (7,2%), Urgut (6,6 %), Jomboy (6,3%), Bulung'ur (5,2%), Toyloq (4,3%), Ishtixon (3,9%), Narpay (3,3%), Qo'shrabot (1,2 %), Kattaqo'rg'on shahar (0,9%), Paxtachi (0,7 %) va Nurobod (0,2 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




O'tgan yilga nisbatan % da




Sohalarning tashkiliy shakli kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Sanoat sohasida



Qurilish sohasida



Savdo sohasida



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header features the national emblem and the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the header, there is a navigation menu with options like "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR".

The main content area is divided into three columns:

- RASMIY STATISTIKA**: A list of statistical services including "E'lon qilish taqvim", "Metama'lumotlar", "Makro'rsatkichlar", "Milliy hisoblar", "Narx va indekslar", "Investitsiyalar", "Qurilish", and "Tashqi iqtisodiy faoliyat".
- FOYDALI MA'LUMOTLAR**: A list of useful information including "Aholini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-relezlilar", "Choraklik natijalar", "Nashrlar - statistika haqida", "Uslubiy materiallar", and "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar".
- Forma**: A central form titled "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri". It contains a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" with options: "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxonalar pasporti". Below the menu is a text input field labeled "STIR kodini kiriting" and a "Qidiruv" button. A note below the field says "Kodni yangilash uchun ramimga bosing".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrnlarni yuritish
bo'limi**
Tel.: 66 235-14-42